

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

UO'T: 633.522+631.832

ANDIJON,2024

KANOPNING “O‘ZBEK-2268” NAVINING POYA BALANDLIGIGA KALIY O‘G‘ITINI BARGDAN OZIQLANTIRISHNING TA’SIRI

Qodirova Vazira Xokimjon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti,

25vazira96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kanopning “O‘zbek-2268” navining poya balandligiga kalyi o‘g‘itini bargdan oziqrantirishning ta’siri o‘rganilgan. Tajribadagi 6 ta turli variant bir-biri bilan taqqoslanganda, mineral o‘g‘itlar fonida bargdan 48 kg/ga kalyi mineral o‘g‘iti berilgan variant yuqori poya hosili olish uchun yaxshi natija olish mumkinligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: poya hosili, jut, kanvas, brezent, kanop urug‘i, lampa moyi, kanop poyasi.

Kirish. Xalq xo‘jaligida kanop o‘simgisi tolasining ahamiyati juda katta, o‘simglik tolasidan to‘qimachilik sanoatida uning mayin va dag‘alligiga qarab, har xil gazmollar ishlab chiqariladi. Eng ko‘p ishlatiladigan paxta tolsi hisoblanadi. Undan keyingi o‘rinlarda poyasida tola hosil qiluvchi o‘simgiklar, jumladan kanop, jut, tolali zig‘ir kabilar muhim o‘rin tutadi. Tolasi paxta tolasiga nisbatan dag‘al bo‘lganligi uchun undan uy jihozlarida ishlatiladigan dag‘al gazlamalar, qop, qanor arqon va shunga o‘xhash har xil mahsulotlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Asosan kanopning poyasida 17-18 % to‘qishga yaroqli tola bo‘ladi, uzunligi 1,5 – 3 metr bo‘lgan tola iplari arqon, arqon, kanvas, qop, gilam suyanchig‘i, to‘r, dasturxon va hokazolar yasashda qo‘llaniladi. Eng yaxshi sifatli tola olish uchun poyalari gullar ochilgandan so‘ng qisqa vaqt ichida yig‘ib olinishi kerak. Eng yaxshi tola poyanining tagida joylashganligi sababli, ko‘pincha qo‘lda yig‘ish tavsiya etiladi[1].

Ma’lumki, kanop juda nozik o‘simglik hisoblanadi. Shuning uchun, ayniqsa, hozirgi murakkab ob-havo sharoitida ekin qator oralarini tezda yumshatish va begona o‘tlarni yo‘qotish fermerlardan talab qilinadigan zaruriy chorallardan biridir. O‘simglik hosildorligini oshirishda ilg‘or texnologiyalardan biri sifatida o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanish hisoblanadi [4].

Kanop poyasida 17-18% to‘qishga yaroqli tola hosil qiladi. Kanopning tolasi rangsiz, tiniq, lekin dag‘al bo‘ladi. Bu tola qop-qanor, arqon, brezent, uy jixozlari uchun gazmollar, o‘rash uchun ip va boshqa buyumlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Moy lak-bo‘yoq sanoatida, sovun tayyorlashda ishlatiladi. Hindistonda lampa moyi sifatida ishlatiladi. Kanop yovvoyi holda Janubiy Afrikada uchraydi. Uning vatani Hindiston va Janubiy Afrika hisoblanadi. Kanop ko‘proq Hindiston, Eron, Xitoy, Yava va Sumatra orollarida, Afrikada Amerikada (AQSh, Braziliya, Kuba va boshqalar) ekiladi. [2; 152-156-b]. Urug‘ida 18 dan 35% gacha quritish mumkin bo‘lgan yarim qurituvchi yog‘ mavjud [3].

Tadqiqot o‘tkazish joyi, sharoiti va uslublari. Ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat agrar universiteti eksperimental ilmiy-tadqiqot va o‘quv tajriba xo‘jaligida 2023-2024-yillarda o‘tkazildi.

Tajriba xo‘jaligi Chirchiq daryosining yuqori qismidajoylashgan bo‘lib, dengiz sathidan 481 m balandlikda, $41^{\circ} 11''$ shimoliy kenglikda va $38^{\circ} 31''$ sharqiy uzoqlikda Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan.

Tadqiqot olib borilgan tuproq sho‘rlanmagan, undagi quruq qoldiq 0,112-0,002%, ishqorlik darajasi pH 7,1-7,4, gips pastki qatlamlarda 1,2-2,0 m chuqurlikda joylashgan. 0,35-0,56% tuproqdagi S0₂ karbonatlar miqdori 6,7-11,15%, tuproqdagi singdirilgan kationlar miqdori 100 g tuproqda 7,9-11,8 mg/ekv. Kalsiy haydalma qatlamda ko‘proq 76,4-81,3% bo‘lib, quyi qatlamlarda kamayib boradi 60-66%, kesmaning quyi qatlamlarida magniy miqdori oshib 15,3-20,7%, undan ham quyida 30,7-36,4% ni tashkil qiladi. Pastki qatlamlarda (1,5-2,0

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

m) singdirilgan magniy miqdori ko‘p bo‘lib, singdirish sig‘imiga nisbatan 45-55% ni tashkil etadi. Singdirilgan Na⁺ juda kam bo‘lib, umumiy hajmiga nisbatan 1-2,5% ni tashkil etadi.

Tajriba tizimi 6 ta variant, bitta qaytariq, qator osari 70 sm qilib bitta sxemaga joylashtirilgan. Tajribada kanopning “O‘zbek-2268” ertapishar navi olingan. Bu nav O‘zbekiston Moyli va tolali ekinlar tajriba stansiyasida S-2142 x 286914 tizmalarini chatishtirish yo‘li bilan yaratilgan. Mualliflari: L.V.Semenixina, L.A.Volkova, I.U.Anarboev, S.To‘xtayevalar tomonidan yaratilgan. 2010- yilda Toshkent viloyati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestriga kiritilgan tezpishar nav bo‘lib, o‘suv davri o‘rtacha 115-124 kunni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari. Ma’lumki, o’simliklarda poya qanchalik yaxshi o’ssa, yuqori darajada poya hosil bo‘ladi, bu esa ulardan mo‘l va sifatlari poya hosili olinishini ta’minlaydi. Natijada kanopdan ko‘p miqdorda tola olish imkoniyati yaratiladi.

2023-yil olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra kanopning “O‘zbek-2268” navining poya balandligiga kaliy o‘g‘itini mineral o‘g‘itlar fonida turli me’yorlarda bargda oziqlantirilganda ijobiy natijalar kuzatilganligi aniqlandi. Tajribada mineral o‘g‘itlar qo‘llanilmagan nazorat variantda poya balandligi 2-3 chinborg chiqarish fazalarida 36,9 sm ni tashkil etganligi kuzatildi. Mineral o‘g‘itlar qo‘llanilgan fon variantda esa poya balandligi 37,9 sm ni tashkil etib, nazorat variantga nisbatan 1 sm ni yoki 2,7 foizga ortganligi aniqlandi.

Mineral o‘g‘itlar fonida kaliy o‘g‘itini 36 kg/ga qo‘llaganimizda ushbu fazada 38,8 sm bo‘lib, bu ko‘rsatkich nazorat variantiga 1,9 sm ni, fon variantiga nisbatan esa 0,9 sm ga yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Kaliy o‘g‘itini fonda 48 kg/ga berganimizda esa 39,8 sm nazorat variantimizga qaraganda 2,9 sm ni, fon variantdagiga nisbatan 1,9 sm ga, mineral o‘g‘itlar fonida 36 kg/ga kaliy o‘g‘iti berilgan variantga qaraganda 1 smga poya o‘sgani aniqlandi. Mineral o‘g‘itlar fonida kaliy mineral o‘g‘itini 60 kg/ga miqdorda bargdan kanop o‘simligining 2-3 chinborg chiqarganda berganimizda 39,5 sm bo‘lib, bu ko‘rsatkich nazoratga nisbatan 2,6 sm, fonga nisbatan 1,6 sm ga o‘sganligini ko‘rsatdi. Bargdan fon bilan birga 36 kg/ga kaliy mineral o‘g‘iti berilgan variantga nisbatan 0,70 sm ga, kaliy o‘g‘iti 48 kg/ga berilgan variantga qaraganda 0,3 smga yuqori balandlikda bo‘ldi. Mineral o‘g‘itlar fonida 75 kg/ga suspenziya berilganda 39,1 sm bo‘lib, bu nazoratga qaraganda 2,2 sm ko‘proq fonga nisbatan 1,2 sm ko‘proq natijani ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatkich fon bilan birga 36 kg/ga berilgan kaliy o‘g‘iti variantiga nisbatan 0,30 sm ga, 48 kg /ga kaliy o‘g‘iti bargdan fon bilan birga qo‘llanilgandagi variantga nisbatan 0,70 sm ga, bargdan fon bilan birga 60 kg/ga kaliy mineral o‘g‘iti berilgan variantga nisbatan 0,40 smga yuqori bo‘ldi. Mineral o‘g‘itlarning kanop o‘simligini poya balandligiga ta’siri shonalash- gullash fazasida nazorat variantida 201,1 sm bo‘ldi. Fon variantida esa bu ko‘rsatkich 206,8 sm bo‘lib, nazoratga nisbatan 5,7 sm yuqori bo‘lganligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Mineral o‘g‘itlarning kanop o‘simligi poya balandligiga ta’siri, sm (2023 y)

No	O‘g‘it me’yorlari	2-3 chinborg chiqarish	shonalash- gullash	gullash- meva hosil qilish
1	O‘g‘itsiz (nazorat)	36,9	201,1	335,2

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

2	Fon-N ₂₀₀ P ₁₀₀ K ₈₀	37,9	206,8	344,6
3	Fon+K ₃₆ (bargdan oziqlantirish)	38,8	211,7	352,8
4	Fon+K ₄₈ (bargdan oziqlantirish)	39,8	217,1	361,8
5	Fon+K ₆₀ (bargdan oziqlantirish)	39,5	215,3	358,9
6	Fon+K ₇₅ (bargdan oziqlantirish)	39,1	213,4	355,7

Mineral o‘g‘itlar fonida kaliy o‘g‘itini 36 kg/ga berilganda, 211,7 sm bo‘lib nazoratga nisbatan 10,6 sm, fondagiga nisbatan 4,9 sm yuqori bo‘lgani aniqlandi. Kaliy o‘g‘iti 48 kg/ga suspenziya qo‘llanilganda poya balandligi 217,1 sm ni, bu nazoratga nisbatan 16 sm, fonga nisbatan 10,3 sm yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Mineral o‘g‘itlar fonida kaliy o‘g‘iti 60 kg/ga berilganda 215,3 sm ni, ko‘rsatkich nazoratga 8,5 sm bo‘lib, fonga nisbatan 8,5 sm ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Kaliy o‘g‘itini fonda bargdan 75 kg/ga berganimizda 213,4 sm bo‘lib, nazoratga qaraganda 12,3 sm, fonga nisbatan 6,6 sm bo‘lganligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlar gullah- meva hosil qilish fazasida nazorat variantida 335,2 sm bo‘lib, fon variantida bu 344,6 sm ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich nazoratga nisbatan 9,4 sm yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Kaliy o‘g‘itini 36 kg/ga bargdan oziqlantirilganda 352,8 sm bo‘lib, bu nazoratga nisbatan 17,6 sm, fonga nisbatan 8,2 sm yuqori bo‘ldi. Mineral o‘g‘itlar fonida 48 kg/ga suspenziya qilib berilganda, 361,8 sm bo‘lib, nazoratga nisbatan 26,6 sm, fonga nisbatan 17,2 sm ko‘rsatkichni bo‘ldi. Kaliyli o‘g‘itni 60 kg/ga berilganda esa 358,9 kg/ga berilganda, nazoratga nisbatan 23,7 sm ga, fonga nisbatan 14,3 sm ga yuqori bo‘lganligini ko‘rsatdi. Mineral o‘g‘itlar fonida kaliy o‘g‘iti 75 kg/ga oziqlantirilganda, 355,7 sm, bu nazoratga qaraganda 20,5 sm, fonga nisbatan 11,1 sm ga yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ushbu tajriba tizimida mineral o‘g‘itlar fonida suspenziya qilib berilgan 48 kg/ga kaliy mineral o‘g‘iti berilgan variant qolgan variantlarga nisbatan yaxshi matijani ko‘rsatdi. Va ushbu variantda poya balandlig yuqori bo‘lganini ko‘rshimiz mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Huxley A , MacMillan Press, 1992;
2. Idrisov X.A, Nazarov S.M “O‘simlikshunoslik”, o‘quv qo‘llanma “Durdona”, Buxoro-2023, 152-156-b;
3. "[Hibiscus cannabinus.L.](#)"[Plants of the World Online. RoyalBotanicGardens, Kew.](#) Retrieved 30 October 2022;
4. Xolmurodova G.R, Tangirova G.N, Abdiev F.R, Yuldasheva R.A, G‘o‘za va texnik ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi, Darslik, “Lesson press”, Toshkent – 2021 76-79-b.